


Kognitiv va hissiy rivojlanish: bolalarda fikrlash va o'rganish jarayonlarini hissiy ehtiyojlarini o'rganish.



Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
Sayliyeva Mashhura

Maqsad va dolzarblik

Bolalarda kognitiv (fikrlash, o'rganish) va hissiy rivojlanish jarayonlarini o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligini tushuntirish hamda ta'lim jarayonida hissiy ehtiyojlarni inobatga olish zarurligini ko'rsatish.





Kognitiv jarayonlar — bu insonning bilish faoliyatini tashkil etuvchi psixik jarayonlar bo'lib, ular orqali atrof-muhitni idrok qilish, tushunish, eslab qolish, o'ylash va muammolarni hal qilish sodir bo'ladi.

Kognitiv jarayonlar — inson bilish faoliyatining markaziy mexanizmidir.

Sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va nutq kabi jarayonlar birgalikda inson shaxsiyatini va faoliyatini shakllantiradi.

Ularning to'g'ri rivojlanishi orqali inson o'z salohiyatini ro'yobga chiqaradi, jamiyatda muvaffaqiyat qozonadi.

Shu bois, kognitiv jarayonlar rivojiga bolalikdan boshlab alohida e'tibor qaratish kerak.



Kognitiv rivojlanish

Kognitiv rivojlanish – bu bolalarda fikrlash, xotira, e'tibor, tafakkur, tasavvur va muammolarni hal qilish kabi intellektual jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi. Piaget nazariyasiga ko'ra, bola tug'ilganidan boshlab turli bosqichlarda bilish jarayonlarini egallab boradi (sensor-motor, preoperatsion, konkret va formal operatsiyalar bosqichi).



Hissiy rivojlanish esa bolaning emotsional ehtiyojlari, o'zini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish, ijtimoiy munosabatlarda moslashish va his-tuyg'ularni boshqarish jarayonlarini qamrab oladi. Bu rivojlanish Eriksonning psixososial bosqichlari bilan ham izohlanadi, unda har bir davrda bolaning emotsional ehtiyojlari (ishonch, mustaqillik, tashabbus, mehnatsevarlik va h.k.) shakllanadi.





Kognitiv va hissiy rivojlanish o'zaro bog'liqligi bola yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida hissiy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, qo'rqish yoki xavotir kognitiv jarayonlarni sekinlashtirishi mumkin, ijobiy emotsiyalar esa motivatsiyani oshiradi. O'qituvchi va ota-onalarning mehribon munosabati, ijobiy muhit yaratishi bolaning o'ziga ishonchini oshirib, tafakkur va xotira rivojlanishini tezlashtiradi.

Kognitiv rivojlanish (masalan, tilni o'zlashtirish) hissiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq: til orqali bola o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi, ijtimoiy aloqalar esa bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.





Hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni o'lchashning nazariy va metodologik muammolari mavjud — masalan, qanday qismlar “ijtimoiy” va “emotsional” deb hisoblanadi, va o'lchash vositalarining haqiqiyliigi. Ba'zan tadqiqotlar yosh, madaniyat, ijtimoiy sharoit farqlari (oilaviy daromad, shahar/qishloq) ehtiborga olinmaydi.

Chet tillar, texnologik omillar (ekranlar, media) ham bolalarning hissiy-ham kognitiv rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa yangi tadqiqot mavzusi bo'lib kelmoqda. 3. Kognitiv va hissiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi

Bolalarda emosional regulyatsiya, ijro funksiyalari (diqqat, ishchi xotira, boshqaruv) va metakognitsiya 3–4 yoshdan boshlab o'zaro bog'liq ravishda bolalar keyingi maktab yillarda muvaffaqiyatga erishishini prognoz qiladi.

Tadqiqotlardan biri shuni ko'rsatadiki, 5 yoshdagi bolalarning emotsional regulyatsiyasi ularning maktabdagi mahsuldorligi, o'qish va matematika testlarida natijalari bilan ijobiy bog'liq.

Bolalarning hissiy ehtiyojlarini o'rganish

- Suhbat va savolnomalar – bolaning his-tuyg'ularini tushunishga yordam beradi



- O'yin faoliyati – o'yin jarayonida bola ichki dunyosini, qo'rquv va quvonchlarini namoyon qiladi.



- Chizmachilik va ijodiy ishlar – bola o'z hissiyotlarini rasmlar, qo'shiqlar, hikoyalar orqali ifodalayd

Xulosa

Bolalarda kognitiv va hissiy rivojlanish uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Fikrlash, o'rganish, xotira, e'tibor kabi kognitiv jarayonlar bolaning hissiy holati bilan chambarchas ta'sirlashadi. Ijobiy emotsiyalar o'quv faoliyatini kuchaytirsam, salbiy emotsiyalar esa uni sekinlashtiradi. Shu bois ta'lim jarayonida bolalarning nafaqat aqliy qobiliyatlari, balki hissiy ehtiyojlarini ham hisobga olish muhimdir

Demak, o'quv jarayonida bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning hissiy barqarorligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash zarur. Bu esa kelajakda nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faol, hissiy jihatdan yetuk shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi..



E'tiboringiz uchun rahmat!





Zoho Show

SayliyevaM.pdf

(This PDF has been generated using Zoho Show)

To create beautiful presentations, download Zoho Show from Play Store

<https://zoho.to/cy7>